

## **BEMOR BILAN MULOQOTDA “UNVERSAL KALIT” INTERFAOL USULINI QO‘LLASH**

*Yusupov Hamza Safarovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali o‘qituvchisi*

*Fozilova Nigora Sobirjonovna,*

*Muxammadiyeva Kamola Dilshod qizi,*

*Olloberganova Yorqinoy Azimboy qizi.*

### **Annototsiya :**

**Maqsad:** Tibbiyot oliygohi talabalariga ta’lim jarayonida bemor bilan muloqotni o‘rgatishda “Unversal kalit” interfaol usulini qo‘llash.

### **Mavzuning dolzarbligi:**

1. Oxirgi 3 yil, 2019-2022 yillar ichida Respublikamizda 300 dan ortiq tibbiyot xodimlariga turli shakldagi tajovuzlar qilingan. Buni kelib chiqish sabablari o‘rganilganda, aholi tomonidan tibbiyot xodimlariga bemor bilan yoki bemor qarindoshi bilan qupol muloqotda bo‘lish jumalari ko‘p ishlatilgan va ishlatilmoqda. Bu o‘z navbatida “Tibbiy etika va deontologiya asoslari” mavzusini haligacha dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

2. Tibbiy etika va deontologiyani qonun va qonun osti hujjatlari asosida (2018 yil 7 dekabrda 5590-sonli PQ («O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida») va shu PQ ga asosan O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2019 yilning 17 iyulida 161-sonli buyrug‘iga asosan, «Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi» tasdiqlangan.) tushuntirish zaruriyatiga ehtiyoj sezilmoqda.

**Kutilayotgan natija:** Oilaviy vrach va tez tibbiy yordam vrachlarini bemorlar bilan muloqotda o‘zaro kelishuvga erishishi hamda kelishmovchiliklarga barham berish. Bu mashg‘ulot maq-sadi har qanday bemor psixologiyasini o‘rganish natijasida, har qanday bemorga moslashish.

**Kalit soʻzlar:** Interfaol oʻqitish usullari. Tibbiy etika va deantologiya. Tibbiy statistika.

**Аннотация:**

**Цель:** Использовать интерактивный метод «Универсальный ключ» при обучении студентов-медиков общению с пациентом в ходе учебного процесса.

**Актуальность темы:**

1. За последние 3 года, 2019-2022 годы, в нашей Республике нападениям в различных формах подверглись более 300 медицинских работников. При изучении причин этого фраз широко использовались и используются населением. Это, в свою очередь, показывает актуальность темы «Основы медицинской этики и деонтологии».

2. На основе и нормативных документов и законов медицинской этики и деонтологии (ПК № 5590 от 7 декабря 2018 года («О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан») и на основании настоящего ПК Министр здравоохранения Республики Узбекистан 2019 г. 17 июля приказом №161 утвержден «Кодекс этики медицинского персонала».) ощущается необходимость разъяснений.

**Ожидаемый результат:** Помощь семейным врачам и врачам скорой помощи в достижении взаимного согласия и разрешении разногласий в общении с пациентами.

**Ключевые слова:** Интерактивные методы обучения. Медицинская этика и деонтология. Медицинская статистика.

**Annotation:**

**Purpose:** To use the interactive “Universal Key” method when teaching medical students how to communicate with a patient during the educational process.

**Relevance of the topic:**

1. Over the past 3 years, during 2019-2022, more than 300 medical workers have been attacked in various forms in our Republic. When studying the reasons for this, the

rude phrases were widely used and are used by the population these days. This, in turn, shows the relevance of the topic “Fundamentals of medical ethics and deontology”.


2. Based on laws and regulations of Medical ethics and deontology (PC No. 5590 dated December 7, 2018 (“On comprehensive measures to radically improve the healthcare system of the Republic of Uzbekistan”) and on the basis of this PC, the Minister of Health of the Republic of Uzbekistan 2019, July 17, by order No. 161 approved the “Code of Ethics for Medical Personnel.”) the need for clarification emerges.

**Expected result:** Assisting family doctors and emergency physicians in achieving mutual agreement and resolving disagreements in communication with patients.

**Key words:** Interactive teaching methods. Medical ethics and deontology. Medical statistics.

**Asosiy qism:**


A)



B)







Barcha tibbiyot institutini bitirgan yosh vrachlar dastlabki yillarda oilaviy vrach yoki tez tibbiy yordam(TTYO) bo‘limlarida ish boshlashadi. Ular ilk davrda turli organ kasalliklariga duch kelgani sababli, turli bemorlar bilan muloqotda bo‘lishadi va unga tayyor bo‘lishlari lozim. SHuningdek, har qanday vrach oilaviy vrach yoki TTYO vrachi ko‘rsata oladigan hajmdagi tibbiy yordamni ko‘rsata olishi zarur.



Vrach qanchalik ko‘p ishlasa, shunchalik tajribasi ortib boradi va keyinchalik bitta yo‘nalishdagi mutaxassislik buyicha ishlashi mumkin. Bu tibbiy yordamning 4 va 5 bosqichlariga to‘g‘ri kelib, bu davrda vrach o‘z tanlagan yonalishi buyicha etuk mutaxassis sanaladi.

### Universal kalit interfaol usuli

### Har qanday bolt va gaykaga tushuvchi kalit.

 <p><b>Болт</b></p>	<p><b>Bolt(nemis tilida Bolt)- mashina yoki inshootlarning ajratuvchi qismlarning bir –biriga mahkamlovchi detal. Bir uchida tashki spiralsimon aylanma yo‘llik – rezba, ikkinchi uchida maxsus kalitga mos qalpoqcha bo‘ladi. .</b></p>	
 <p><b>Гайка</b></p>	<p><b>Gayka- boltga burab kirgaziladigan, ichi teshik rezbali detal bo‘lib, faqat o‘z o‘lchamidagi boltga to‘g‘ri keladi.</b></p>	
	<p><b>Har bir bolt va gaykani bir-biriga mahkamlash uchun kalit zarur.</b></p>	
	<p><b>Bolt yoki gayka o‘lchamiga kalit mos kelmasa, burab bo‘lmaydi.</b></p>	
<p><b>Kalitlar individual yoki unversal turlarga bo‘linadi.</b></p>		
<p><b>Individual kalit faqat o‘z o‘lchamli bolt yoki gaykani buray oladi.</b></p>	<p><b>Unversal kalit har qanday o‘lchamli bolt yoki gaykani buray oladi.</b></p>	
		
		

### TIBBIYOTDA:

Vrach o‘z ish faoliyatida turli hayot tarixiga ega bemorlar bilan muloqot qiladi. Agar bir xil standart usulda muloqot qilsa, bemor vrachdan qanoatlanmasligi mumkin. **Agar vrach unversal kalitga o‘xshab barcha bemorlar bilan o‘zaro til topsa, davolanish samarasi oshadi.** Vrach bemorning sog‘ayishiga ishontira olishi, 50%

g'alabasini ta'minlaydi. Bu hozirgi davrda oilaviy vrach va tez tibbiy yordam vrachlari faoliyatida turli yo'nalishdagi bemorlar bilan muloqotda muhim rol uynaydi.

## BEMOR BILAN ILK MULOQOT UCHUN ZARURIY TIBBIY FUNDAMENTAL BAZA BILIMLARI:

<b>Sog'lom odam</b>	<b>SOG'LOM INSON</b> - tushunchasi nisbiy bo'lib, bunda inson jismoniy, ruhiy, aqliy mezonlari normal hayotiy mi'yoriy chegara oralidida bo'ladi. SHuningdek klinik, labarotor va tibbiy asboblarni tekshiruvdan o'tkazilganida ham ko'rsatgichlar hayot ko'rsatgichlarning kuyi va yuqori chizig'i orasida bo'lishi lozim.
<b>Norma yoki insonning mi'yoriy ko'rsatgichlari</b>	<b>Norma</b> bu bitta tirik yaxlit organizm ( yoki organ)ning hayotiy chegaradagi xolatidir. Normal anatomiya organizm sistema, organ tuzilishini o'rganadi. Gistologiya to'qima, xo'jayra tuzilishini o'rganadi. Normal fiziologiya organlarni fuksiyasi ya'ni hayotiy jarayoni( barcha tirik belgilari-nafas olishi, xakrakati qisqarishi, qo'zg'alishi,...vaqtida ) tinch turgan da va xarakat vaqtida , tashkilot ta'sirota'sir etmaganda yoki ta'sir etayotgan vaqtida o'rganadi.
<b>Bemor</b>	<b>BEMOR</b> -( sinonimi: patsent, kasal, xasta, o'sal, nosog'lom, sog'lig'ida muammosi bor shaxs, ..ko'zi ojiz, gapira olmaydigan(gung va saqov), yurishda qinchiliklari bor( oqsoq..),.. jismo niy, ruhiy, aqliy yoki labarotor tekshiruvda biror normadan chetga chiqish kuzatilgan shaxs.
<b>Etalon</b>	<b>Standart</b> ( ingliz tilida o'lchov standarti, etalon) - <b>Etalon</b> ( fransus tilida —namuna) — biror narsaning idial namunasi, o'lchovi yoki turi.
<b>Muloqot</b>	<b>MULOQOT</b> - ikki va undan ortik kishilarning o'zaro muomulasidan iborat jaraendir. O'zaro munosabatlarga kirishaetgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari-o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir.
<b>Verbal muloqot</b>	<b>VERBAL MULOQOT</b> - faqat insonlarga xos muloqot turi bo'lib, har tomonlama rivojlangan funksional nutq organlari yordamida o'z istagini so'z bilan bayon etish usulidir.
<b>Noverbal muloqot</b>	<b>NOVERBAL MULOQOT</b> - inson imo-ishoralar yordamida o'z istagini bayon etish usuli.
<b>Axloq</b>	<b>AXLOQ</b> — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida <u>namoyon</u> bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda Axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan <u>baho</u> berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni <u>etika</u> fanio'rganadi.
<b>Odob</b>	<b>ODOB</b> -bu insonning ijobiy fazilatlaridan biridir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da:"Odob - "adab" (arabcha)" deyiladi. Va yana shu kitobda: "Adab (arabcha)-adabiyot, yaxshi tarbiya, ma'qul harakat. Ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomilalik" deyiladi. Luqmoni Hakimdan odobni qaerdan o'rganding?"deb so'rashganda, odobni beadablardan o'rgandim" deb javob bergan ekan. Inson umri davomida o'z odobini yaxshilab bormog'i lozim. Odatda odob oldin o'rganilib, undan so'ng esa unga amal qilinadi.
<b>Etika</b>	<b>ETIKA</b> (yun. egpoz — xulq, odat) — <u>axloq</u> va uning <u>shaxs</u> hamda <u>jamiyat</u> hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy <u>fan</u> . Etika axloqshunoslikning falsafiy nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktikamaliy asarlarni o'z ichiga oladi U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik



	<p>namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqllar, maqollar tarzida <u>bayon</u> etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonunqoidalarni o'rgatadi.</p> <p>Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari — kategoriyalari <u>bor</u>: fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar Axloq inson va jamiyat hayotining barcha (shaxsiy, jamoaviy, kasbiy va h. k.) jabhalarini qamrab olganligi tufayli uni o'rganuvchi Etika barcha fanlar bilan aloqador. Etika bu barcha insonlar orasidagi muloqotdir. SHuningdek umumiy etika inson kasbiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan sotuvchilar etikasi, sartoroshlar etikasi, o'qituvchilar etikasi, tibbiyot xodimlari etikasi(tibbiy etika)...</p>
<b>Este-tika</b>	<p><b>ESTETIKA</b> (yun. — his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir) — inson bilan <u>dunyo</u> o'rtasidagi <u>qadriyat</u> munosabatining o'ziga xos tomonlarini va kishilarning badiiy faoliyati sohasini o'rganuvchi falsafiy <u>fan</u>. «Estetika» terminini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714—62) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida <u>go'zallik</u> falsafasi, <u>san'at</u> falsafasi, badiiy <u>ijod</u> falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafosatshunoslik yoki <u>nafosat</u> falsafasi atamaları ham estetikasi anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at estetikasi, <u>tabiat</u> E. si, <u>texnika</u> E. si,</p>
<b>Egrotogeniya</b>	<p><b>EGROTOGENIYA</b> – bu bir bemorning ikkinchi bemorga salbiy ta'siri, bu asosan shifoxona sharoitida yoki bemorni ko'rishga borgan vaqtdagi ta'siri natijasida kelib chiqadi. Bu omil ham yatrogen kasalliklarga olib keladi.</p>
<b>Egogeniya</b>	<p><b>EGOGENIYA</b> – bemorning o'z kasalligini bilgandan so'ng tushkunlikka tushishi natijasida kelib chiqqan yatrogen kasallik. (Mana shuning uchun ham ayrim kasalliklar bemorlardan sir tutilib (agar so'rasa boshqa engilrok kasal turi aytiladi) boriladi va shuning uchun ham bemorlar qo'liga kasallik tarixlari ham berilmasligi kerak bo'ladi, kasalligi to'g'risida qarindoshlariga tushuntirilib aytiladi.).</p>
<b>Evtanaziya</b>	<p><b>EVTANAZIYA</b> - (ot grech. εὖ — <i>xorosh</i> + θάνατος — <i>smert</i>)—og'riqsiz o'lim. Davolab bo'lmaydigan kasallikka chalingan va bu kasallik natijasida chidab bo'lmas azob-uqubatlarni boshdan kechirayotgan hayvonning, shu jumladan insonning hayotini tugatish amaliyoti.Evtanaziya bemor istagiga ko'ra, bemor qarindoshlari istagiga ko'ra, shifokor istagiga ko'ra turlariga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida evtanaziya ta'qiqlangan.</p>
<b>Bioetika</b>	<p><b>BIOETIKA</b> – tabiatdagi tirik jonzotlarning o'zoro muloqotidir. Ko'pgina insonlar bioetika va etika( umumiy muloqot) hamda tibbiy etika(faqat tibbiyotga bog'liq muloqot) ni farqlashda qiynaladi. Bioetika- bu bio-hayot, etika muloqot so'zidan kelib chiqqanligini yana bir esga olamiz, hayotda tirik jonzotlar 3 ta asosiy turga bo'linadi odamlar, hayvonlar(zamburug', virus...) va o'simliklar. Bioetika-tabiatdagi tirik jonzotlarning o'zoro bir biri bilan muloqoti. Bunda asosiy o'rinni odamlar egallaydi. CHunki insonlar oliy nerv faoliyati yaxshi rivozlangan oliy mavjudot sanalib, tabiatda hayvonlar va o'simliklar ustidan xukmronlik qilmoqdalar. Insonlar barcha tirik jonzotlar( insonlar bir-biriga nisbatan, hayvonlarga hamda, o'simliklarga nisbatan) mehr- murivatlil bo'lishi insoniylik tamoillaridan biridir. Insonlar hayvonlarni xo'rlashi, o'simliklarni o'sishiga to'sqinlik qilish (agar inson yashashiga halaqit bermasa...) jamiyatda qoralanadi. Bu insonni hayvon bilan muloqoti, ya'ni bioetikaning bir ko'rinishidir...</p>

**ANDOZA OLISH : Tibbiyotda bemorlar mutloqo bir –biriga o‘xshamaydi. Hatto bir xil kasallikka uchragan bemorda ham kasallik turlicha kechadi. Bunga sabab har bir bemorning individual xolatidir. Kimdadir yo‘ldosh kasalligi bor, kimdadir esa yo‘q. Kimdir yoshi kichik, tez tuzaladi, kimdir yoshi ulug‘, sekin tuzaladi. Kimnidir tana vazni yuqori, kimdir tana vazni meyo’rida... Har bir bemor o‘ziga xos hayot tarixi (Anamnesis vitae) ga ega. Inson boshidan o‘tgazgan barcha kasallik asoratlari yoki yo‘ldosh kasalligi oxirgi kasalligini og‘irlashtirishi mumkin. SHu sababli kasallik kimdadir og‘ir, kimdadir yengil kechadi. Har bir bemorga alohida-individual yondoshuv zarur.**

**Abu Ali Ibn Sino ham o‘z davrida o‘zining tib qonunlari 1 - kitobi 571 sahifasida kasallarni davolashda har bir bemorga alohida yondashuv masalasini o‘rtaga tashlab, bunda bemorning yoshi, yashash sharoiti, iqlim, kasb-kori, kasallikga olib keluvchi har bir omilni hisobga olishni taklif etgan.**



**GreyLib:                      библиотека                      Хуршида                      Даврона**

**Как быть гением. Уроки Ибн Сины — «отца врачей планеты».**

**Vrach bemor bilan muloqotda ijobiy natijaga erishishi uchun nima qilishi lozim:**

- Muloqotda isbot talab etmaydigan gaplardan foydalanish zarur( masalan: sog‘lom turmish tarziga amal qilsangiz yurak qon-tomir kasalligiga chalinish xavfingiz kamayadi, O‘z vaqtida davolanmasangiz, kasallik og‘ir asoratlar qoldirishi mumkin);
- Vrach bemor oldida tushkun (negativ) kayfiyatda bolmasligi lozim:



- Vrach o‘zi namuna bo‘lishi lozim (bemorga ozishingiz kerak deb ta’kidlagan holda, vrachning o‘zini tana vazni katta bo‘lsa, bemor vrachga ishonmaydi);

- Bemor o‘zi boshidan o‘tgan va natijasi bemorga ma’lum gaplar jumlasidan foydalanishi lozim...;

- Organizm fiziologiyasini tiklash( qabziyat bo‘lsa, parxez orqali meyo’riga keltirish, ...)

- Muloqotda bemorning biror bir gap jumlasini xato bo‘lsada, birdan rad etmasdan, lekin ko‘p manbalarda mana bunday natijalar bo‘lgan deb, bemor fikrini to‘g‘ri tomonga o‘zgartirish;

SHungdek har bir bemorni o‘ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim:

- Bemorning yoshi (yosh organizmda kasallik yoshi ulug‘larga nisbatan tezroq tuzaladi);

- Semizlik ( tana vazni og‘ir- semiz insonlarda kasallikga chalinish ehtimoli yuqori );

- Zararli odatlar( spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, sigaret chekish, giyohvand moddalarini iste’mol qilish...);

- Gipodinamiya( kam xarakat qiluvchilar jismoniy aktiv insonlarga nisbatan ko‘proq kasallanadilar);

- Ovqatlanish gigienasiga rioya etmaslik( oshqozon –ichak kasalliklariga olib keladi);

- Kasbga bog‘liq xolatlar( sement zavodlari yoki chang li joyda ishlovchilarda pnevmakonioz kabi kasb kasalliklari rivojlanadi );

- Ko‘rish gigienasiga rioya etmaslik ( kitob o‘qish , televizor(telefon) ko‘rishda yorug‘lik noto‘g‘ri tushsa, ko‘z xiralashadi);

- ...

**XULOSA: “Universal Kalit” har qanday o‘lchamdagi bolt va gaykaga tushgani kabi, vrach ham har qanday bemor bilan muloqotda o‘zaro til topishi lozim. Har bir**

**kasal alohida o‘z tarixiga ega ekanligi va davolashda o‘sha individualligini inobatga olgan holda yondashish lozim. Barcha shu diagnozdagi bemorga bir xilda davolash tayinlash tavsiya etilmaydi. Har bir bemordagi klinik, laborator va instrumental tekshirish natijalariga diqqatli bo‘lishi, har qanday mayda detallarga ham e‘tiborli bo‘lishi lozim.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Interfaol metodlar: moxiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma.  
Tuzuvchilar: D.Ruzieva, M.Usmonboeva, Z.Xolikova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 bet.
2. Interfaol ta‘lim. Xidoyatova Dilafuz Abdugaffarovna. Toshkent 2015 «Abu Matbuotkonsalt», 2015. – 44 b.
3. 2018 yil 7 dekabrda 5590-sonli PQ («O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida») va shu PQ ga asosan O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2019 yilning 17 iyulida 161-sonli buyrug‘iga asosan, «Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi» tasdiqlangan.